

O'zbekiston Respublikasiga kelgan va ketgan shaxslar soni

2018 yil
yanvar-
dekabr



6433,0 ming kishi *

O'zbekiston Respublikasiga kelgan
chet el fuqarolari soni 2017 yilga
nisbatan 2,3 martaga ortgan

13838,6 ming kishi *

Chet elga ketgan O'zbekiston
Respublikasi fuqarolari soni 2017 yilga
nisbatan 2 martaga ortgan



** Respublikaga kelgan va ketganlarning umumiy sonida bir kishi bir necha marta hisoblanishi mumkin va bu alohida xolat sifatida hisobga olinadi.*

So'nggi yillarda mamlakat milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni izchil amalga oshirilmoqda, bu esa uning tez rivojlanish, yangi ish joylari yaratish, daromadlarni oshirish, aholi turmush darajasi va sifatini yuksaltirish, shuningdek, investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan.

Respublikaning sayyohlik salohiyatini rivojlantirish, qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, mamlakatning boy tabiiy resurslaridan, madaniy va tarixiy merosi imkoniyatlardan to'liq foydalanish maqsadida quyidagi hujjatlar qabul qilindi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5326-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3509-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 noyabrdagi "2018 yil 19 - 21 noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan Turizm sohasidagi birinchi xalqaro investitsiya forumini samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 931-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi Farmoni "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5611-sonli Farmoni va boshqa chora-tadbirlar natijasida xalqaro munosabatlarni mustahkamlash, davlatimizni eng ko'p sayyohlar tashrif buyuradigan mamlakatlardan biriga aylantirish.

Xorij davlatlaridan O'zbekiston Respublikasiga kelgan fuqarolar sonini tahlilidan ko'rinadiki, oxirgi ikki yilda tashrif buyurgan chet el fuqarolarining soni 2,3 martaga ortgan. Masalan, 2017 yilda bu ko'rsatkich 2,8 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda esa 6,4 million kishini tashkil etgan.


2014-2018 yillarda O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni



Oxirgi ikki yilda chet elga tashrif buyurgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni sezilarli darajada ortdi. Masalan, 2017 yilda bu ko'rsatkich 6,8 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda esa 13,8 million kishini tashkil etdi. Xuddi shunday chet eldan tashrif buyuruvchilar ham ikki barobarga ortgan.

2014-2018 yillarda ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soning dinamikasi


Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni



2018 yilda O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining 53,1 % (3413,3 ming kishi) erkaklar, 46,9 % (3019,6 ming kishi) ayollarni tashkil etadi.

Shu bilan birga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining 57,8 % (8002,6 ming kishi) erkaklar, 42,2 % (5836,0 ming kishi) ayollarni tashkil etadi.


2018 yilda O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni



MDH davlatlaridan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari 6015,9 ming kishini tashkil etgan bo'lib, bu jami tashrif buyurganlarning 93,5 % tashkil etadi, uzoq xorijiy davlatlardan esa 417,1 ming kishi (yoki 6,5 %) tashrif buyurgan.

MDH davlatlariga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari 13308,0 ming kishini tashkil etgan bo'lib, bu jami tashrif buyurganlarning 96,2 % tashkil etadi, uzoq xorijiy davlatlarga esa 530,6 ming kishi (yoki 3,8 %) tashrif buyurgan.

MDH va uzoq xorijiy davlatlardan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni




O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy qismi Qozog'iston Respublikasidan 2456,9 ming kishi (38,2 %), Tojikistondan 1700,7 ming kishi (26,4 %), Qirg'izistondan 1101,5 ming kishi (17,1 %), Rossiyadan 460,2 ming kishi (7,2 %). Uzoq xorijiy davlatlardan esa Turkiyadan 74,8 ming kishi (1,2 %), Xitoydan 37,1 ming kishi (0,6 %), Janubiy Koreyadan 32,7 ming kishi (0,5 %), Xindistondan 22,2 ming kishi (0,3 %), Germaniyadan 19,1 ming kishi (0,3 %), Yaponiyadan 17,2 ming kishi (0,3 %) tashrif buyurgan.

2018 yilda MDH va uzoq xorijiy davlatlardan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining soni



2018 yilda O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishi




Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy qismi MDH davlatlaridan Qozog'iston Respublikasiga 51,6 % (7139,8 ming kishi), Qirg'iziston Respublikasiga 23,1 % (3196,8 ming kishi) va Rossiyaga 8,5 % (1178,7 ming kishi) tashrif buyurgan. Uzoq xorijiy davlatlardan esa Janubiy Koreyaga (79,7 ming kishi), Xitoy, AQSH, Germaniyaga tashrif buyurgan.

2018 yilda MDH va uzoq xorijiy davlatlarga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni




O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy safar maqsadlari qarindoshlarni yo'qlash 73,2 % ni tashkil etadi. Keyingi o'rinlarda sayyohlik maqsadida - 7,1 %, doimiy yashash maqsadida – 1,2 %, xizmat yuzasidan - 0,9 %, davolanish maqsadida 0,8 %, tijorat maqsadida – 0,8 %, ish – 0,6 % va o'qish maqsadida 0,2 %. O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining 53,1 % erkaklar, 46,9 % ayollarni tashkil etadi.

2018 yilda O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi



Chet el fuqarolarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi



Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy safar maqsadi qarindoshlarni borib ko'rish - 57,6 %. Keyingi o'rinda esa ishlash maqsadida – 29,9 %, doimiy yashash 3,3 %, sayyohlik maqsadida - 2,9 %, xizmat yuzasidan – 0,8 %, transit – 0,8 %, o'qish maqsadida – 0,4 %, davolanish - 0,4 % ni tashkil etadi

2018 yilda chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi

2018 yilda chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, ming kishi

57,6%

Qarindoshlarni borib ko'rish



29,9%

Ish



3,3%

Doimiy yashash joyi



2,9%

Sayyohlik



0,8%

Xizmat yuzasidan



0,8%

Tranzit



0,4%

Davolanish



0,4%

O'qish



3,9%

Boshqalar

